Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA BOJXONA ORGANLARI FAOLIYATINING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Bahronov Ma’ruf Salohiddin o‘g‘li

Yuridik boshqarma bosh inspektori

e.mail: bahronov_1992@mail.ru
Tel: +998 93 461-52-59

Annotatsiya: Maqolada globallashuv sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning zamonaviy tendensiyalari, iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi ichki va tashqi omillar hamda ularni bartaraf etishda bojxona organlarining o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt texnologiyalari, xavflarni boshqarish tizimlari va elektron bojxona rasmiylashtiruvlarining iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashdagi ahamiyati ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, iqtisodiy xavfsizlik, sun’iy intellekt, xavflarni boshqarish, raqamli bojxona, kontrabanda, kiberxavfsizlik.

IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND LEGAL FRAMEWORK OF CUSTOMS AUTHORITIES’ ACTIVITIES IN ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN UNDER CONDITIONS OF DIGITAL TRANSFORMATION

Abstract. The article analyzes contemporary trends in ensuring economic security under conditions of globalization, internal and external factors threatening economic security, and the role of customs authorities in preventing and mitigating such threats. It also provides a scientific substantiation of the significance of digital transformation, artificial intelligence technologies, risk management systems, and electronic customs clearance procedures in strengthening economic security.

Keywords: globalization, economic security, artificial intelligence, risk management, digital customs, smuggling, cybersecurity.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫХ ОСНОВ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТАМОЖЕННЫХ ОРГАНОВ ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Аннотация. В статье анализируются современные тенденции обеспечения экономической безопасности в условиях глобализации, внутренние и внешние факторы, угрожающие экономической безопасности, а также роль таможенных органов в предупреждении и нейтрализации таких угроз. Кроме того, научно обосновано значение цифровой трансформации, технологий искусственного интеллекта, систем управления рисками и электронного таможенного оформления в обеспечении экономической безопасности.

Ключевые слова: глобализация, экономическая безопасность, искусственный интеллект, управление рисками, цифровая таможня, контрабанда, кибербезопасность.

KIRISH

XXI asrda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro savdo hajmining oshishi va raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi dunyodagi davlatlar qatori O‘zbekistonning ham iqtisodiy xavfsizlik tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda.

Xususan, dunyodagi geosiyosiy vaziyat, xalqaro sanksiyalar, logistika tizimidagi uzilishlar, transmilliy jinoyatchilik va kiberxavfsizlik bilan bog‘liq xavflar iqtisodiy xavfsizlikning mazmunini tubdan o‘zgartirmoqda.

Bunday sharoitda iqtisodiy xavfsizlik nafaqat makroiqtisodiy barqarorlikni, balki tashqi iqtisodiy faoliyat ustidan samarali nazoratni, milliy bozorni himoya qilishni hamda davlatning fiskal manfaatlarini ta’minlashni ham o‘z ichiga oladi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda bojxona organlari iqtisodiy xavfsizlikning muhim institutsional subyekti sifatida namoyon bo‘lmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda bojxona organlarining o‘rni mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Iqtisodiy xavfsizlik nazariyasining shakllanishida rossiyalik olimlar V.K.Senchagov, L.I.Abalkin, S.Y.Glazyevlarning ilmiy ishlari muhim o‘rin tutadi. Ularning tadqiqotlarida iqtisodiy xavfsizlik davlatning milliy manfaatlarini himoya qilish, iqtisodiy barqarorlikni saqlash va tashqi tahdidlarga qarshi turish qobiliyati sifatida talqin etilgan [1].

Xalqaro miqyosda iqtisodiy xavfsizlik va bojxona boshqaruvi masalalari Jahon bojxona tashkiloti (JBT), Jahon savdo tashkiloti (JST), Jahon Banki ekspertlari tomonidan o‘rganilgan. Xususan, JBT tomonidan ishlab chiqilgan SAFE Framework of Standards xalqaro savdo xavfsizligini ta’minlash va bojxona ma’murchiligini modernizatsiya qilishning asosiy konseptual hujjatlaridan biri hisoblanadi [2].

O‘zbekistonlik olimlardan A.V.Vahobov, N.X.Jumayev, B.Y.Xodiyev, Sh.Sh.Shodmonov va boshqalarning ilmiy ishlari iqtisodiy xavfsizlikning nazariy asoslari, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish hamda davlatning fiskal manfaatlarini himoya qilish masalalariga bag‘ishlangan [3].

So‘nggi yillarda raqamli transformatsiya va sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining bojxona organlari faoliyatiga tatbiq etilishi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Xususan, SI asosidagi xavflarni boshqarish tizimi, Big Data texnologiyalari, elektron bojxona auditi hamda “Single Window” mexanizmlarining iqtisodiy xavfsizlikka ta’siri xalqaro ekspertlar tomonidan faol o‘rganilmoqda.

Tahlillarga ko‘ra, mavjud ilmiy tadqiqotlarda iqtisodiy xavfsizlikning umumiy nazariy asoslari va bojxona organlarining fiskal funksiyalari yetarlicha yoritilgan bo‘lsada, globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida bojxona organlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari kompleks tarzda yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy tadqiqot usullaridan kompleks ravishda foydalanildi. Jumladan:

tizimli tahlil usuli yordamida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash tizimida bojxona organlarining o‘rni va funksiyalari o‘rganildi;

statistik tahlil usuli asosida 2022–2025-yillarda bojxona organlari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari o‘rganildi;

institutsional yondashuv orqali bojxona organlarining iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashdagi tashkiliy-huquqiy mexanizmlari baholandi;

prognozlash usuli asosida bojxona organlari faoliyatini yanada takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlari ishlab chiqildi.

Tadqiqotning empirik bazasini O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Bojxona qo‘mitasining idoraviy hujjatlari, JBT hujjatlari hamda xalqaro ilmiy manbalar tashkil etdi.

Iqtisodiy xavfsizlik – davlatning iqtisodiy manfaatlari, moliyaviy barqarorligi va strategik resurslarining ichki hamda tashqi tahdidlardan himoyalanganlik holatini anglatadi [4].

Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi bugungi kunda fiskal xavfsizlik, tashqi savdo xavfsizligi, transport-logistika xavfsizligi, kiberxavfsizlik, oziq-ovqat xavfsizligi, energetika xavfsizligi kabi bir qator tarkibiy elementlarni qamrab oladi.

Ushbu yo‘nalishlarning deyarli barchasi bojxona organlari faoliyati bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi.

Sababi bojxona organlari tashqi savdo operatsiyalarini nazorat qiladi, bojxona to‘lovlari to‘g‘ri undirilishini ta’minlaydi, kontrabanda va noqonuniy tovar aylanmasiga hamda kontrafakt tovarlar kirib kelishishiga qarshi kurashadi, strategik tovarlar harakatini monitoring qiladi, xalqaro savdo statistikasi shakllantirilishida hamda iqtisodiy xavflarni aniqlash va prognozlashda ishtirok etadi.

Zamonaviy bojxona tizimi

Globallashuv, xalqaro savdo hajmlarining ortishi va raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bojxona organlari oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

Zamonaviy bojxona ma’muriyatchiligi nafaqat fiskal funksiyalarni bajaruvchi institut, balki iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlovchi, tashqi savdo jarayonlarini tartibga soluvchi va investitsiyaviy muhit jozibadorligini oshiruvchi muhim davlat organi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasida bojxona tizimini transformatsiya qilish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bojxona organlari faoliyati bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan quyidagi strategik maqsadlarga asoslanadi:

birinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun qulay sharoitlar yaratish hamda bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish orqali tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish maqsadi ko‘zda tutilgan. Mazkur yondashuv xalqaro savdo xarajatlarini kamaytirish va mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

ikkinchidan, bojxona to‘lovlari davlat budjeti daromadlarining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, bojxona to‘lovlarining to‘liq va o‘z vaqtida undirilishini ta’minlash vazifasi belgilangan.

uchinchidan, bojxona qonunchiligiga rioya etilishi ustidan samarali nazoratni tashkil etish, ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini joriy etish orqali qonun ustuvorligini mustahkamlash nazarda tutiladi.

to‘rtinchidan, bojxona qonunchiligi buzilishlarining oldini olish, kontrabanda va boshqa noqonuniy harakatlarga qarshi kurashish orqali mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsad qilib olingan [5].

Raqamli transformatsiya

Raqamli transformatsiya bojxona tizimi rivojlanishining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Elektron deklaratsiyalash, masofaviy bojxona nazorati, xavflarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ma’lumotlarni tahlil qilish platformalarining joriy etilishi natijasida bojxona xizmatlari sifati yangi bosqichga ko‘tarildi.

1-jadval. Bojxona organlari faoliyatini raqamlashtirish jarayoni *(eksport va import)*



Manba: Bojxona qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari

2022–2025-yillar davomida bojxona rasmiylashtiruvi jarayonlari sezilarli darajada soddalashtirildi.

Xususan:

bojxona rasmiylashtiruvi vaqti 4,5 barobarga qisqardi;

bojxona tekshiruvlari soni 3 barobarga kamaydi;

import operatsiyalarining 81 foizi va eksport operatsiyalarining 89 foizi soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtiriladigan bo‘ldi;

avtomatik bojxona rasmiylashtiruvi ulushi sezilarli ravishda oshdi;

tadbirkorlarning vaqt va moliyaviy xarajatlari kamaydi [6].

Mazkur natijalar bojxona ma’murchiligida xavflarni boshqarish tizimiga asoslangan zamonaviy yondashuvlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Bugungi kunda raqamli transformatsiya sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning eng samarali vositalaridan biri, SI texnologiyalarini bojxona faoliyatiga joriy etish hisoblanadi.

SI ijtimoiy xavfi yuqori bo‘lgan yuklarni aniqlaydi, bojxona deklaratsiyalaridagi nomuvofiqliklarni aniqlaydi, kontrabanda sxemalarini prognoz qiladi, bojxona nazoratining manzilliligini oshiradi, rasmiylashtirish jarayonida inson omilini kamaytiradi.

Shu nuqtai nazardan, “Customs Data Warehouse”, Big Data texnologiyalari, avtomatlashtirilgan xavflarni boshqarish tizimi va SI platformalarni joriy etish iqtisodiy xavfsizlikning yangi bosqichini shakllantirmoqda [7].

Hozirda bojxona organlari iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlovchi muhim davlat organi sifatida faoliyat yuritmoqda.

Kontrabanda, noqonuniy va kontrafakt tovarlar aylanmasi, bojxona qiymatini sun’iy pasaytirish va boshqa huquqbuzarliklarni aniqlash bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar natijasida huquqbuzarliklarni aniqlash samaradorligi sezilarli darajada oshdi.

Shu bilan birga, bojxona organlari davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda muhim o‘rin tutmoqda. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida bojxona to‘lovlari tushumlari bir necha barobarga ortib, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shmoqda.

Xususan, 2025-yil uchun bojxona organlari zimmasiga ***73,9 trln so‘m***lik reja belgilangan bo‘lib, davlat budjetiga ***76,2 trln so‘m*** o‘tkazildi hamda istiqbol reja 103,2 %ga bajarildi. Bu esa 2024-yilga nisbatan 21 % ga ko‘tarilganligini ko‘rsatmoqda *(63 trln so‘m)* [8].

Inson resurslari siyosati

Bojxona tizimi samaradorligi ko‘p jihatdan inson omiliga bog‘liq. Shu sababli xodimlarni ijtimoiy himoya qilish, ularning malakasini muntazam oshirib borish va zamonaviy bilimlar bilan ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bojxona institutining rivojlantirilishi, zamonaviy o‘quv markazlari faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi, xalqaro standartlar asosida kadrlar tayyorlash tizimining takomillashtirilishi hamda xodimlarning ijtimoiy sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar bojxona organlari faoliyatining institutsional salohiyatini oshirmoqda.

Kontrabanda va yashirin iqtisodiyot

Kontrabanda davlat budjeti daromadlarining kamayishiga, ichki ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligi pasayishiga hamda yashirin iqtisodiyotning kengayishiga olib keladi.

Ayniqsa tamaki va alkogol mahsulotlari, farmatsevtika vositalari, mobil qurilmalar, strategik xomashyo mahsulotlari bo‘yicha noqonuniy aylanmalar iqtisodiy xavfsizlikka jiddiy tahdid solmoqda.

2-jadval Bojxona organlari tomonidan aniqlangan huquqbuzarliklar tahlili



BOJXONA HUQUQBUZARLIKLARI BO‘YICHA ANIQLANGAN HOLATLAR DINAMIKASI (2025-YIL)

№	Ko‘rsatkich	2024-yil	2025-yil	O‘zgarish	O‘sish sur’ati
1	Aniqlangan holatlar soni	29 705 ta	42 833 ta	+13 128 ta	+44 %
2	Madaniy boyliklarning noqonuniy aylanuvi	3 738 ta	5 960 ta	+2 222 ta	+59 %
3	Aniqlangan tovarlar qiymati	838 mlrd so‘m	1 trln 145 mlrd so‘m	+306 mlrd so‘m	+36 %
4	Valyuta qimmatliklari	37,8 mlrd so‘m	91,7 mlrd so‘m	+53,8 mlrd so‘m	2,4 barobar
5	Zargarlik buyumlari	68,7 mlrd so‘m	140 mlrd so‘m	+71,3 mlrd so‘m	2 barobar

QISQA TAHLIL

Huquqbuzarliklar soni o‘sishi	Madaniy boyliklar soni o‘sishi	Tovarlar qiymati o‘sishi	Valyuta qimmatliklari o‘sish sur’ati	Zargarlik buyumlari o‘sish sur’ati
13 128 ta holat	+2 222 ta holat	+306 mlrd so‘m	2,4 barobar	2 barobar

Izoh: Qiymatlar so‘mda ko‘rsatilgan.

Manba: *Bojxona qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari*

Elektron deklaratsiyalashning keng qo‘llanilishi va masofaviy bojxona nazoratining rivojlanishi axborot tizimlari xavfsizligini bugungi kunda strategik masalaga aylantirdi.

Bojxona tizimida axborot makonlariga qilingan kiberhujumlar davlat sirlarining oshkor bo‘lishiga, ma’lumotlarning sizib chiqishiga, bojxona to‘lovlari hisobining noto‘g‘ri yuritilishiga, natijada respublikaning davlat budjetiga undiriladigan pul mablag‘lari to‘g‘risadagi ma’lumotlarning noto‘g‘ri shakllanishiga, logistika tarmog‘ining izdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

Jahon iqtisodiyotidagi beqarorlik, savdo urushlari va iqtisodiy sanksiyalar xalqaro savdo yo‘nalishlarining o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda.

Natijada bojxona organlari oldiga yangi logistika yo‘nalishlarini monitoring qilib borish, yuklarning tranzit harakati xavfsizligini ta’minlash, tashqi savdo operatsiyalarini diversifikatsiya qilishga ko‘maklashish vazifalari qo‘yilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bojxona tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash, tashqi savdo jarayonlarini soddalashtirish va tadbirkorlik subyektlari uchun qulay muhit yaratishga xizmat qilmoqda.

Raqamli texnologiyalar, zamonaviy infratuzilma va malakali kadrlar uyg‘unligi bojxona organlarini zamonaviy boshqaruv institutiga aylantirib, mamlakatning xalqaro iqtisodiy maydondagi raqobatbardoshligini oshirishga zamin yaratmoqda.

Globallashuv sharoitida iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi an’anaviy fiskal va tashqi savdo nazoratidan ancha keng mazmun kasb etmoqda. Zamonaviy sharoitda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash

davlatning tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, raqamli infratuzilma xavfsizligini kafolatlash, kontrabanda va noqonuniy moliyaviy oqimlarga qarshi kurashish bilan chambarchas bog‘liq.

Shu bois bojxona organlari faoliyatini raqamlashtirish, SI texnologiyalarini joriy etish, xavflarni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda tashkiliy-huquqiy asoslarni modernizatsiya qilish O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash maqsadida quyidagi yo‘nalishlarda islohotlarni davom ettirish maqsadga muvofiq:

1. Kiberxavfsizlik bo‘yicha alohida ixtisoslashgan bo‘linmalarni rivojlantirish.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida bojxona organlari faoliyati tobora ko‘proq axborot tizimlari, elektron deklaratsiyalash, “Yagona darcha”, masofaviy bojxona nazorati va xalqaro ma’lumotlar almashinuviga tayanmoqda. Natijada iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar an’anaviy kontrabandadan tashqari kiberxavflar ko‘rinishida ham namoyon bo‘lmoqda.

Bojxona axborot tizimlariga qilingan kiberhujumlar bojxona ma’lumotlarining buzilishiga, davlat budjeti tushumlarining kamayishiga, noqonuniy tovar aylanmasining yashirilishiga, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari haqidagi ma’lumotlarning sizib chiqishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli kiberxavfsizlikni umumiy IT-funksiyalar tarkibida emas, balki **alohida ixtisoslashgan yo‘nalish sifatida** tashkil etish zarur.

Bunda, bojxona axborot tizimlarining uzluksiz ishlashi ta’minlanadi, ma’lumotlar xavfsizligi darajasi oshadi, iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi kiberxatarlar kamayadi, tizimning raqamli suvereniteti mustahkamlanadi.

2. SI texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy asoslarini belgilash.

Hozirgi vaqtda SI texnologiyalari xavflarni boshqarish, kontrabanda xavfini prognozlash, deklaratsiyalarni tahlil qilish va bojxona nazoratini avtomatlashtirishda keng qo‘llanilmoqda.

Biroq, SI tizimlari tomonidan qabul qilingan qarorlarning huquqiy maqomi, javobgarlik masalalari, algoritmlarning shaffofligi va ma’lumotlardan foydalanish tartibi ko‘plab davlatlarda hali ham huquqiy jihatdan to‘liq tartibga solinmagan.

Institutsional nazariya va “good governance” konsepsiyasiga ko‘ra, har qanday raqamli texnologiya samarali ishlashi uchun uning huquqiy mexanizmlari aniq belgilangan bo‘lishi lozim [9].

Bunda, SI texnologiyalaridan foydalanishning qonuniyligi ta’minlanadi, inson omili va korrupsion xavflar qisqaradi, avtomatlashtirilgan qarorlar ustidan nazorat mexanizmlari yaratiladi, bojxona nazorati samaradorligi oshadi.

3. Elektron bojxona auditini normativ jihatdan mustahkamlash.

JBT va rivojlangan davlatlar tajribasi bojxona nazoratini chegaradan keyingi (post-clearance audit) shaklga o‘tkazish samaradorligini ko‘rsatmoqda.

An’anaviy tekshiruvlar ko‘p vaqt va resurs talab qilsa, elektron audit: masofadan monitoring olib borish, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, xavf darajasi yuqori subyektlarni aniqlash imkonini beradi.

Biroq, elektron auditning huquqiy maqomi, elektron hujjatlarning daliliy kuchi, masofaviy tekshiruv natijalarini rasmiylashtirish tartibi normativ jihatdan mustahkamlanmasa, uning amaliy samaradorligi cheklangan bo‘lib qoladi.

Bunda, bojxona nazoratining sifati hamda shaffofligi ortadi, tadbirkorlik subyektlariga ma’muriy yuk kamayadi, yashirin iqtisodiyot va bojxona qonunchiligi buzilishlarini aniqlash samaradorligi oshadi.

4. Xalqaro ma’lumot almashinuvi mexanizmlarini kengaytirish.

Globallashuv sharoitida kontrabanda, bojxona qiymatini sun’iy pasaytirish, noqonuniy moliyaviy operatsiyalar va transmilliy jinoyatlar bir davlat chegarasida cheklanib qolmaydi.

Shu sababli iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda bojxona organlarining xorijiy davlatlar bilan real vaqt rejimida axborot almashinuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro amaliyotda elektron sertifikatlar almashinuvi keng qo‘llanilmoqda.

Bunda, kontrabanda sxemalari tezroq aniqlanadi, bojxona qiymatini manipulyatsiya qilish holatlari kamayadi, tranzit xavfsizligi mustahkamlanadi, tashqi savdo statistikasining ishonchliligi ortadi.

5. Bojxona nazoratining masofaviy shakllarini qonunchilikda mustahkamlash.

Raqamli transformatsiya jarayonida nazoratning klassik usullari asta-sekin masofaviy monitoring, SI va elektron ma’lumotlar tahliliga asoslangan tizimlar bilan almashmoqda.

Bunday yondashuv GPS-plombalar, videokuzatuv, elektron identifikatsiya, IoT sensorlari [10], masofaviy audit orqali amalga oshiriladi.

Lekin mazkur nazorat shakllarining huquqiy maqomi aniq belgilanmasa, ularning natijalari dalil sifatida tan olinishi va amaliyotda qo‘llanishida muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Bunda inson omili qisqaradi, bojxona rasmiylashtiruvi tezlashadi, korrupsion xavflar pasayadi, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash samaradorligi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi PF–57-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 25-martdagi PQ–122-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-dekabrdagi PF–250-son Farmoni.
4. Senchagov V.K. Rossiyaning iqtisodiy xavfsizligi. – Moskva: Delo nashriyoti, 2015. – 815-b.
5. Abalkin L.I. Rossiya iqtisodiy xavfsizligi: tahdidlar va ularni bartaraf etish mexanizmlari. – Moskva: Ekonomika nashriyoti, 2014. – 496-b.
6. Glazyev S.Y. Davlat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash asoslari. – Moskva: Ekonomika nashriyoti, 2017. – 352-b.
7. Jumayev N.X. Milliy iqtisodiyot va iqtisodiy xavfsizlik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020. – 368-b.
8. Jahon bojxona tashkiloti. Xalqaro savdoni xavfsiz va yengillashtirish standartlari tizimi (SAFE Framework of Standards to Secure and Facilitate Global Trade). – Bryussel, 2021.

9. Jahon bojxona tashkiloti. Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish bo‘yicha qayta ko‘rib chiqilgan Kioto konvensiyasi (Revised Kyoto Convention). – Bryussel, 2020.

10. Jahon banki. Savdoni yengillashtirish va iqtisodiy rivojlanish hisoboti (Trade Facilitation and Economic Development Report). – Vashington, 2023.

11. Widdowson D. Bojxona tizimida xavflarni boshqarish mexanizmlari. World Customs Journal. – 2022.

12. Jahon bojxona tashkiloti. “Aqlli bojxona” loyihasi va sun’iy intellekt bo‘yicha tavsiyalar (Smart Customs Project and Artificial Intelligence Guidelines). – Bryussel, 2024.

13. Grainger A. Bojxona ma’muriyatchiligi va savdoni yengillashtirish: nazariyadan amaliyotga. Journal of World Trade. – 2022.

14. Mikuriya K. Raqamli transformatsiya va sun’iy intellekt davrida bojxona tizimining rivojlanishi. World Customs Journal. – 2023.

15. Jahon savdo tashkiloti. Jahon savdosi hisoboti (World Trade Report 2024). – Jeneva, 2024.

16. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va taraqqiyot bo‘yicha konferensiyasi (UNCTAD). Raqamli iqtisodiyot hisoboti (Digital Economy Report 2024). – Jeneva, 2024.